

## **YASHIL IQTISODIYOT- KELAJAK IQTISODI: INNOVATSIYALAR, INVESTITSIYALAR VA ISTIQBOLLAR**

*Farg'onha Politexnika instituti talabasi*

**Rasulov Abdurahim**  
*e-mail: abdurahimr845@gmail.com*  
*+998943915566*

**Annotatsiya:** Yashil iqtisodiyot o'sish va rivojlanish uchun muqobil qarashdir; ekologik va ijtimoiy farovonlikni oshirishga mos keladigan tarzda iqtisodiy rivojlanish va odamlar hayotini yaxshilashga yordam beradigan biri. Yashil iqtisodiyot strategiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri barqaror texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishni rag'batlantirishdir. Ushbu maqolamning umumiy maqsadi barqaror texnologik o'zgarishlarni amalga oshirishda duch keladigan va jamiyatdagi turli darajadagi siyosatchilar va mutaxassislar tomonidan to'g'ri tushunilishi kerak bo'lgan bir qator muammolarni muhokama qilishdir. Shuningdek, biz kelajakdagi tadqiqotlar uchun ba'zi yo'llarni aniqlaymiz.

**Kalit so'zlar:** yashil» iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan siyosat, energiya manbalari sohasida bozor mexanizmlarini tatbiq etish, yirik korxonalar yashil texnologiyalarga yo'naltirish, Yashil viza

**Аннотация:** зеленая экономика-это альтернативное видение роста и развития; тот, который способствует экономическому развитию и улучшению жизни людей таким образом, чтобы это соответствовало повышению экологического и социального благополучия. Одним из важных компонентов стратегии зеленой экономики является стимулирование разработки и внедрения устойчивых технологий. Общая цель этой моей статьи-обсудить ряд проблем, с которыми мы сталкиваемся при осуществлении устойчивых технологических изменений, и которые должны быть должным образом поняты политиками и экспертами на разных уровнях общества. Мы также наметим некоторые пути для будущих исследований.

**Ключевые слова:** политика, направленная на развитие на основе принципов "зеленой" экономики, внедрение рыночных механизмов в сфере энергоресурсов, ориентация крупных предприятий на зеленые технологии, Зеленая виза

**Annotation:** the green economy is an alternative vision for growth and development; one that helps to improve economic development and people's lives in a way that is appropriate to increase environmental and social well-being. One important component of the green economy strategy is to promote the development

and implementation of sustainable technologies. The general purpose of this article is to discuss a number of problems that we face in the implementation of sustainable technological change and that must be properly understood by politicians and professionals of different levels in society. We will also identify some paths for future research.

**Keywords:** policy aimed at development based on the principles of the "green" economy, implementation of market mechanisms in the field of energy sources, orientation of large enterprises to green technologies, green visa

### Kirish

**Birinchidan**, iqtisodiyotning barcha sohalarini «yashil» **iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan siyosat** yuritish. Bu esa, tabiiy resurlardan oqilona foydalanish, ularni tejash va biologik resurslarning qayta tiklanishini ta'minlaydi.

Ma'lumki, mamlakatimizda «yashil» iqtisodiyotga o'tishda geografik joylashuv, iqlim o'zgarishi hamda innovatsion yondashuvlardan kelib chiqqan holda yondashilmoqda. O'zbekiston qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnik salohiyatga ega ekanidan kelib chiqib, avvalo, iqtisodiyot tarmoqlarida quyosh, shamol, kichik suv oqimlari, geotermal va biomassa energiyasidan foydalanish hamda ushbu yo'naliishlarga ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratish lozim.

O'zbekiston iqlim sharoitidan kelib chiqadigan bo'lsak, «yashil» energiya manbalarining qariyb **97 foizi** quyosh energiyasiga to'g'ri keladi. Yurtimiz hudularida quyosh energiyasini generatsiyalash qudrati – 525 dan 760 milliard kVt / soatgacha. Buning sababi, yiliga quyoshli kunlar soni 320 kun va faol quyosh soatlari soni o'rtacha 3000 soatni tashkil qilishidir.

Bu qayta tiklanuvchi energiya manbalarini barcha jabhalarda keng joriy etish uchun qulay imkoniyat aslida. Bu imkoniyatdan mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini oshirishda yetarlicha foydalanish, har bir sohaga "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini olib kirish yo'llari aks etgan.

Jumladan, qayta tiklanuvchi va muqobil **energiya manbalari sohasida bozor mexanizmlarini tatbiq etish**, kerak bu bozorda xususiy sektor ishtirokini kengaytirishni taklif etish. Bu orqali **aholining muttasil oshib borayotgan energiya ehtiyojini qondirish** mumkin bo'ladi.

Avvalo chekka va olis hududlarda qayta tiklanuvchi va muqobil energiya manbalaridan foydalanuvchilar faol qo'llab-quvvatlash. Ular uchun jozibador loyihamar taklif etish. Xususiy investorlar uchun imtiyoz va preferensiyalarni joriy etish orqali ham sohaga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalg etish ko'zda tutish.

Iqtisodiyotning ko‘p resurs talab qiladigan – energetika, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport kommunikatsiya tizimi va kommunal sohalarida energiya, resurs tejovchi va boshqa innovatsion ekologik hamda **raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni qo‘llab-quvvatlash** ko‘zda tutish. Ularni hayotga tatbiq etish orqali avvalo aholining ehtiyojlarini qondirib, farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish uchun moddiy ne’matlarni yaratishning barqaror ravishda ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ko‘paytirib borish imkoniyatlari kengayadi.

**Ikkinchidan**, mamlakatdagi asosiy ishlab chiqaruvchilar, ayniqsa, yirik korxonalar **yashil texnologiyalarga yo‘naltirish**.

Butun dunyoda, qolaversa mamlakatimizda ham tabiiy resurlardan oqilona foydalanish, ularni tejash va biologik resurslarning qayta tiklanishini ta’minlash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, O‘zbekiston uglevodorod energiyasi – neft, gaz, ko‘mirdan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning kamida **4,5 foizini** yo‘qotmoqda. Qolaversa, mamlakatdagi energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarning **salkam yarmi eskirib bo‘lgan**. Ularni tiklash yoki modernizatsiyalash esa katta mablag‘ni talab qiladi. Buning o‘rniga ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan samarali hisoblangan «yashil energetika»ga o‘tish har jihatdan afzaldir.

**Uchinchidan**, O‘zbekiston investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida «**Yashil viza**» dasturini joriy etish taklifi ilgari surish. Bu orqali mamlakatimizga tabiiy resurslardan samarali foydalanish uchun kapital jalb qilinishi e’tiborga loyiqdir.

Buning natijasida dunyoning rivojlangan “yashil” ishlab chiqaruvchilari mamlakatimizga kirib kela boshlaydi va qayta tiklanuvchi energiya manbalari hosil qiluvchi texnologiyalar bozorida kuchli raqobat shakllanadi. Natijada aholining va kichik biznes sub’ektlarining “yashil” energiya manbalaridan foydalanish imkoniyati sezilarli oshadi, mahsulot va texnologiyalar tan narxi pasayadi.

**To‘rtinchidan**, tarmoqlar va hududlarning «**yashil iqtisodiyotga o‘tish indeksi**»ni ishlab chiqish taklifi ilgari suriladi. Bu bizga nima beradi?

Avvalo, mamlakatimizda «yashil» iqtisodiyotga o‘tish borasida keng ko‘lamda sharoit va imkoniyatlar yaratilar ekan, undan maqsadli foydalanish orqaligina ko‘zlangan natijalarga erishish mumkin. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida hamda hududlarda bu imkoniyatlardan foydalanish darajasiga baho berish uchun ham «yashil iqtisodiyotga o‘tish indeksi» talab etiladi. Qolaversa, «yashil» iqtisodiyot mamlakatimiz kelajagi ekan, qaysi tarmoq yoki hududning bunga tayyor ekani yoxud orqada qolayotgani yaqqol ko‘rinadi.

## Xulosa

Xulosa qilib aytganda, resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolarning salbiy oqibatlari sharoitida yashil iqtisodiyotni shakllantirishga obyektiv ehtiyoj paydo bo'lmoqda. Yashil iqtisodiyotga o'tish resurslardan samarali foydalanish, ekologik muvozanatni ta'minlash, yangi ish o'rinalarini yaratish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini beradi. Barqaror rivojlanishni ta'minlashda yashil iqtisodiyotning o'rni ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalari, dastur va rejalariga kiritilgan. Yashil iqtisodiyot -bu ekologik xavflarni kamaytirish va tanqislikni kamaytirish, shu orqali odamlar farovonligi va ijtimoiy darajasini yaxshilashga qaratilgan iqtisodiy tizim. Yashil iqtisodiyot -iqtisodiy tizim bo'lib, uning asosiy maqsadi sayyoramiz ekoliyiyasini saqlash va iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishidir.

*Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxatlari:*

<https://ecouz.uz/news-page/view/86>

<https://sustainableearthreviews.biomedcentral.com/articles>

<https://researchedu.org/index.php/openscholar/article>